



OILAVIY HUQUQ VA NIKOH MASALAVIY XUSUSIDA MULOHAZALAR

**Dinora Mardonqulova Nabijon qizi**  
**Nasibaxon Abdullayiva Qobiljon qizi**

*Sarbon universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabalari*

**Annotatsiya**

*Oilaviy huquq va nikoh masalalari jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu soha nikoh tuzish tartibi, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlar, farzandlarning huquqlari, ota-onalarning majburiyatlari, nikohni bekor qilish, shuningdek, oilaviy nizolarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlari:** *nikoh, oila, er-xotin, huquq, jamiyat, ajrim, farzand, aliment.*

**Kirish.** Oila bu – nikoh qon-qarindoshlik yoki farzandlikka olish orqali o'zaro bog'langan, birga yashaydigan va umumiy turmush olib boradigan kishilar guruhidir. Oddiyroq qilib aytganda, oila bu – ota-ona, farzandlar va yaqin qarindoshlardan tashkil topgan mehr-oqibat va mas'uliyat asosida birlashgan jamiyatning eng kichik bo'g'inidir. Oilaviy huquqning asosiy maqsadi oila mustahkamligini ta'minlash, voyaga yetmaganlar manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda adolatli oilaviy munosabatlarni shakllantirishdan iborat.

**Asosiy qism.** Oilaviy huquq – bu jamiyatdagi oila bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasidir. U nikoh tuzish, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, ota-ona va farzandlar huquqlari hamda majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Avvalo nikoh- bu erkak va ayol o'rtasidagi qonuniy asosda tuzilgan ittifoq bo'lib, u davlat tomonidan ro'yxatga olinadi. Nikoh tuzish uchun tomonlarning o'zaro roziligi, belgilangan yoshga yetishi zarur hamda uzrli sabablar mavjud bo'lmagan alohida holatlarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmaganlarning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi – emansipatsiya) nikoh tuzishni hohlovchi shaxslarning iltimosiga ko'ra, nikoh tuzilganligini qayd etish joyidagi tuman (shahar) hokimi tomonidan nikohga kirish yoshi bir yilgacha ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. FHDY organlari tomonidan nikohlanuvchi shaxslarning nikoh tuzilganligini qayd etish to'g'risidagi arizasi qabul qilinishida belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno. Masalan, nikoh tuzish uchun monelik qiladigan hamda monelik qilmaydigan holatlar quyidagilardan iborat:

**Nikohga monelik qiladigan holatlar:**

- Yaqin qarindoshlik (ota-ona va farzandlar, aka-uka, opa-singillar o'rtasida nikoh tuzish),
- Oldingi nikohning mavjudligi (agar shaxs allaqachon boshqa nikohda bo'lsa yoki ajrashmagan bo'lsa),





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Nikoh yoshiga yetmaganlik (qonunda belgilangan yoshga yetmagan shaxslar), Muomala layoqatsizligi (ruhiy kasallik sabab sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida).

- Majburlash (rozilikning yo'qligi, nikoh faqat ixtiyoriy bo'lishi kerak, majburan tuzilgan nikoh haqiqiy hisoblanmaydi).

### **Nikohga monelik qilmaydigan holatlar:**

- Millati yoki irqi (turli millat vakillari o'rtasida nikoh tuzish mumkin);  
- Diniy e'tiqodi (turli din vakillari o'rtasida nikohga ruxsat beriladi);  
- Ijtimoiy kelib chiqishi yoki boylik darajasi (boylik va kambag'allik holatlari nikohga to'sqinlik qilmaydi);

- Yoshi (agar qonuniy yoshga yetgan bo'lsa).

Bu holatlarning barchasi nikohga to'sqinlik qilmaydi. Nikoh turli sabablarga ko'ra bekor qilinishi mumkin. Ajrim jarayonida, ayniqsa, farzandlarning manfaatlari birinchi o'rinda hisobga olinadi. Ajrimdan keyin ota-ona farzandni moddiy ta'minlash majburiyati, ya'ni aliment saqlanib qoladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 99-moddasiga binoan faqat sud hal qiladigan holatlarga ko'ra aliment miqdori bolalar soniga qarab aniqlanadi va ular quyidagilar:

- 1 nafar farzand uchun ish haqi yoki daromadning 1/4 qismi;

- 2 nafar farzand uchun 1/3 qismi;

- 3 va undan ortiq farzandlar uchun 1/2 qismi, ya'ni ish haqining yarmi beriladi.

O'zbekistonda hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri bu ajrim, ajrimga sabab bo'layotgan holatlar quyidagilar;

- Erta turmush qurish (bu esa taraflarning yoshligi sabab o'zaro kelishmovchilik);

- Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklar (shaxsiy munosabatlarda doimiy nizolarni kelisha olmaslik va murosa yo'qligi);

- Jinsiy yoki hissiy mos kelmaslik (nikohda bir tomonning ehtiyoji qondirilmasliligi);

- Zo'ravonlik yoki majburlash (uyda jismoniy, ruhiy yoki moliyaviy zo'ravonlik, majburlash holatlari);

- Noto'g'ri yoki soxta nikoh (nikohning tuzilgan davrida rozilik bo'lmaganligi yoki hujjatlar soxta bo'lganda);

- Sog'liq va ruhiy holatlar bilan bog'liq sabablar (bir tomonning jiddiy ruhiy kasalligi) sababli ko'p ajrimlar bo'lmoqda.

Ajrimlar soni yildan-yilga kamayish o'rniga ortib bormoqda. 2025-yil holatiga ko'ra nikohdan ajrashish bilan bog'liq 70,5 mingta ish ko'rib chiqilgan, shundan 37,5 mingtasi bo'yicha da'vo talablari qanoatlantirilib, shu miqdordagi oilalar rasman ajrashgan. Bu haqida Oliy sud matbuot xizmati ma'lumotlari e'lon qilgan. Bu ko'rsatkichlar 2024-yilga nisbatan yuqori bo'lib, nikohdan ajralishiga oid ishlar soni 63,8 mingtani qanoatlantirilgan, rad etilgan da'volar esa 32,2 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar bizning ko'zimiz bilan qaraganda oddiy sonlar bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin bu raqamlar ortida bir nechta oilalarning buzulishi, farzandlar esa ba'zilar otasiz, ba'zilar esa onasiz qolishiga sabab bo'layotgan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



raqam ko'rsatkichlaridir. Demak bir yil ichida ko'rilgan ishlar 6,7 mingga, ajralish bilan yakunlangan holatlar esa 5,3 mingga (16,5 %) oshgan. Bu ko'rsatkichlar soni ortishiga qaramasdan ajrimlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan, oilaviy maslahat xizmatlari va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari tobora kuchayib bormoqda. Bu esa kelajakda mustahkam oilalar sonini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ajrimlar oldini olish uchun sud va ijtimoiy xizmatlar orqali oilani qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish lozim. Nizoli oilalardan ajrimlarga borishdan oldin mediatsiya va psixologik maslahat xizmatlarini majburiy qilish, farzandlar manfaatlarini birinchi o'rinda qo'yadigan sud qarorlarini qabul qilish, oilani saqlashda samarali vosita bo'la oladi. Og'ir oqibatlarining oldini olish maqsadida yordam tizimini kuchaytirish lozim. Kam ta'minlangan oilalar uchun aliment va bolalarni moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat grantlari yoki soliq imtiyozlarini joriy qilish, oilaning barqarorligini oshiradi. Oila, bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham alohida to'xtalib o'tilgan". Misol uchun, Konstitutsiyamizning II bo'lim XIV-bob 76, 77, 78, 79 va 80 moddalarida ham alohida ta'kidlab o'tgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oilaga alohida e'tibor qaratgan holda o'z fikrlarini ta'kidlab o'tgan "har bir jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo oilaning mustahkamligiga bog'liq". Biz ham Prezidentimizning fikrlarini ma'qullaymiz. Chunki er-xotin o'rtasida mehr, muhabbat, ishonch, oqibat va o'zaro hurmat bo'lsa, oila bo'ladi. Konstitutsiyamizning 76-moddasida ham, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir va u jamiyat va davlat muhofazasidadir", deb belgilangan. Bunday deyilishiga asosiy maqsad – oila nafaqat shaxsiy baxt manbai, balki jamiyat va davlatning barqarorligini ta'minlovchi eng muhim bo'g'in hisoblanadi, shuning uchun unga davlat va jamiyat tomonidan himoya kafolatlanadi.

**Xulosa.** Oila jamiyatning eng muhim va asosiy bo'g'ini bo'lib, uning barqarorligi nafaqat shaxsiy baxt, balki butun jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Nikoh va oila munosabatlari orqali insonlar o'zaro hurmat, mehr-oqibat va mas'uliyatni o'rganadi, farzandlar esa to'g'ri tarbiya va axloqiy qadriyatlarni oladi. Bugungi kunda Ajrimlar soni ortishi, erta turmush qurish holatlarining mavjudligi, oilaviy hayotga yetarli darajada tayyorgarlik yo'qligini ko'rsatmoqda. Ruhiy, jismoniy va moliyaviy jihatdan yetilmasdan qurilgan oila ko'pincha mustahkam bo'la olmaydi. Shu sababli har bir inson nikohga kirishdan oldin oilaviy hayotning mohiyatini chuqur anglab, o'z zimmasidagi mas'uliyatni his qilishi zarur. Jamiyat esa yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash va nizolarni oqilona hal qilish orqali mustahkam oilalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, oila nafaqat shaxsiy baxtning manbai, balki jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy barqarorligining asosiy qarashidir. Shu sababli oilani qo'llab quvvatlash, nikohni mustahkamlash va oilaviy tarbiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustivor vazifalaridan biridir. Shu bois har bir inson oilaviy hayotga jiddiy yondashishi, jamiyat esa mustahkam oilalarni qo'llab quvvatlashi lozim.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi(1998-yil,o'zgartirish va qo'shimchalar bilan.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi-1996(2025-yil 10- yanvargacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan )
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-1992-yil (2023-yil 30 aprel yangi tahriri).
4. Shavkat Mirziyoyev.M Yangi O'zbekiston strategiyasi-Toshkent.O'zbekiston.2021.
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi.
6. Ilmiy va qo'shimcha manbalari.
7. Statistika manbalari (stat.uz)-2025-yil.
8. Psixologiya va sotsiologiya manbalari.
9. M.X. Rustamboyev –“Oila huquqi”

